



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

“ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI”

mavzusidagi III xalqaro ilmiy-nazariy va
amaliy anjuman materiallari



2026-yil 12-fevral





**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI
VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI

BOBUR NOMLI XALQARO JAMOAT FONDI

**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR
MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA
MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI**

III xalqaro ilmiy-nazariy va amaliy anjuman materiallari

Toshkent – 2026



NOVERBAL VOSITALARNING YUZAGA KELISHI VA LINGVISTIK TIPOLOGIYASI

THE EMERGENCE AND LINGUISTIC TYPOLOGY OF NONVERBAL MEANS

Gulruh Xasanova

Samarqand davlat chet tillar instituti

dotsenti v.b., PhD

E-mail: gulruh_88@mail.ru

DOI: [10.52773/tsuull.conf.2026./NETZ6127](https://doi.org/10.52773/tsuull.conf.2026./NETZ6127)

Annotatsiya. *Maqolada noverbal vositalarning lingvistik tipologiyasi, ularning shakllanish jarayoni va kommunikatsiya tizimidagi o‘rni keng yoritiladi. Noverbal muloqot vositalari insoniyat taraqqiyoti tarixida qadimdan mavjud bo‘lib, ular og‘zaki nutq bilan uzviy aloqada rivojlangan. Imo-ishora, mimika, tana harakati, pauza, intonatsiya kabi vositalar til birliklaridan tashqarida turadi, biroq ular muloqot jarayonida semantik, pragmatik hamda psixologik yuklama tashiydi. Qadimgi Rim notiqchilari Sitseron va Kvintilianning qarashlaridan tortib, XIX asrda Darvinning hissiy ifodalar haqidagi tadqiqotlari, XX asrda Birdwhistell va Hall tomonidan ishlab chiqilgan nazariyalar, shuningdek, zamonaviy psixolog va lingvistlarning izlanishlari ushbu sohaning nazariy va amaliy jihatlarini keng qamrab olgan. Noverbal vositalar nafaqat lingvistik fenomen, balki madaniy, sotsiologik va biologik hodisa sifatida ham o‘rganiladi. Ular shaxslararo muloqotda ishonch uyg‘otish, emotsional aloqa o‘rnatish va axborotni samarali yetkazishda asosiy rol o‘ynaydi. Tadqiqot davomida noverbal vositalarning universal va milliy-madaniy xususiyatlari, ularning turli kontekstlarda talqin qilinishi va til bilan o‘zaro integratsiyasi tahlil etilgan. Xususan, Vundtning tovush tili va imo-ishora tili haqidagi qarashlari hamda Delsarte tomonidan ilgari surilgan tana harakatlari va inson xarakteri o‘rtasidagi bog‘liqlik alohida e‘tiborga loyiqdir. Maqola noverbal vositalarning lingvistik, psixologik va sotsiokultural qirralarini batafsil ochib berishga qaratilgan.*

Kalit so‘zlar: *Noverbal vositalar, paralingvistika, ekstralingvistik belgilar, imo-ishora, mimika, tana tili, intonatsiya, pauza, kommunikatsiya, lingvistik tipologiya.*

Annotation. *The article provides a comprehensive overview of the linguistic typology of nonverbal means, their formation process, and their role in the communication system. Nonverbal means of communication have existed since*



ancient times in the history of human development, and they have developed in close connection with oral speech. Means such as gestures, facial expressions, body movements, pauses, and intonation are outside the language units, but they carry semantic, pragmatic, and psychological significance in the communication process. From the views of the ancient Roman orators Cicero and Quintilian, to Darwin's studies of emotional expressions in the 19th century, to the theories developed by Birdwhistell and Hall in the 20th century, as well as the research of modern psychologists and linguists, the theoretical and practical aspects of this field have been widely covered. Nonverbal means are studied not only as a linguistic phenomenon, but also as a cultural, sociological, and biological phenomenon. They play a key role in building trust in interpersonal communication, establishing emotional contact, and effectively conveying information. The research analyzed the universal and national-cultural characteristics of nonverbal means, their interpretation in different contexts and their integration with language. In particular, Wundt's views on sound language and sign language, as well as the connection between body movements and human character put forward by Delsarte, deserve special attention. The article aims to deeply reveal the linguistic, psychological and sociocultural aspects of nonverbal means.

Keywords: *Nonverbal means, paralinguistics, extralinguistic signs, gesture, mimicry, body language, intonation, pause, communication, linguistic typology.*

Bugungi kunda zamonaviy lingvistik fanida og‘zaki bo‘lmagan muloqotga oid bir qator terminlar keng qo‘llanilmoqda. Bular orasida “noverbal vositalar”, “ekstralingvistik vositalar” va “paralingvistik vositalar” alohida o‘rin tutadi. Ushbu tushunchalar bir-biridan farqlansa-da, ular umumiy muloqot tizimining turli qirralarini o‘z ichiga oladi. Ekstralingvistik vositalar deb, til birliklari doirasidan tashqarida bo‘lgan, lekin nutqning ta‘sirchanligi va ifodaliligini oshiruvchi belgilar tushuniladi. Bular qatoriga pauzalar, yig‘i, kulgi, xo‘rsinish, yo‘tal kabi psixo-emotsional holatlarni ifoda etuvchi tovushli signallar kiradi. Ushbu vositalar insonning ichki kechinmalarini ifodalashda va muloqotda hissiy aloqani o‘rnatishda muhim o‘rin tutadi. Paralingvistik vositalar esa nutqga xos bo‘lgan xususiyatlar – masalan, ovozning balandligi, ritmi, intonatsiyasi, tovushlar oralig‘idagi tanaffuslar va boshqa shunga o‘xshash jihatlarni qamrab oladi. Ular og‘zaki ifodaning semantik aniqligini mustahkamlash yoki uning qabul qilinishiga turlicha ta‘sir o‘tkazish salohiyatiga ega.

Insonlar orasida sodir bo‘ladigan axborot almashinuvi murakkab va ko‘p qirrali jarayondir. Ushbu jarayonda qatnashuvchi asosiy vositalarni ikki asosiy guruhga ajratish mumkin: verbal (og‘zaki) va noverbal (og‘zaki bo‘lmagan) vositalar. Har

ikkala turdagi muloqot komponentlari o‘ziga xos semantik yuklama va kommunikativ funktsiya bilan ajralib turadi hamda muloqotning umumiy samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Verbal muloqot til birliklariga asoslanadi va axborotni yetkazishda fonetik, leksik hamda grammatik vositalarning qo‘llanilishiga tayangan holda amalga oshadi. Bu turdagi muloqot odatda og‘zaki nutq yoki yozma shaklda namoyon bo‘lib, eshitish va ko‘rish vositalari orqali idrok qilinadi. Til ushbu holatda asosiy axborot uzatuvchi sifatida xizmat qiladi. Shu bilan birga, noverbal muloqot esa til vositalariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liq bo‘lmagan, biroq kommunikatsiyani boyituvchi va ta’sirchanligini oshiruvchi harakatlar, signallar va turli ekstralingvistik elementlar orqali yuzaga chiqadi. Bunday muloqot insonlararo aloqa jarayonining ajralmas qismi bo‘lib, u axborotni yanada to‘liq va emotsional shaklda uzatishga xizmat qiladi.

Paralingvistik vositalar tarkibiga til tizimining tarkibiy qismi bo‘lmagan, lekin nutq jarayonida ishtirok etuvchi, tovushning ohangdorligi, tembri, balandligi, tezligi, pauzalar va intonatsiya kabi xususiyatlar kiradi. Ular orqali aytilayotgan fikrning mazmuni kuchaytirilishi, zaiflashtirilishi yoki yangi semantik qirralar bilan boyitilishi mumkin.

Aloqa jarayonida inson fikrining aniq va tushunarli yetkazilishi ko‘pincha til vositalari orqali amalga oshiriladi [Abjalova,2013]. Biroq inson muloqoti faqat bundan iborat emas: mimikalar, pantomimik harakatlar, imo-ishoralalar, sukunat, tana tili kabi vositalar ham mazmuni yetkazishda muhim rol o‘ynaydi. Aynan shu noverbal belgilar muloqotga emotsional va psixologik boylik kiritadi.

Qadim zamonlardan buyon inson muloqotida noverbal vositalarning o‘rni olimlarning diqqat markazida bo‘lib kelgan [Abjalova M., Uzakova M., 2022]. Masalan, qadimgi Rim davrining mashhur notiqalaridan biri Mark Tulliy Sitseron imo-ishoralarning muloqotdagi funksiyasiga alohida urg‘u bergan. U bu vositalarni nutqqa emotsional kuch bag‘ishlovchi va uning ma’nosini yanada ravshanlashtiruvchi omil sifatida baholagan. Sitseron, shuningdek, ularni amaliy notqlikda to‘g‘ri qo‘llash borasida muhim tavsiyalarni ilgari surgan, bu esa noverbal kommunikatsiya taraqqiyotida muhim bosqich bo‘lgan [Aslonov, 2019: 50].

Noverbal muloqot, ayniqsa qo‘l harakatlari orqali ifodalanadigan imo-ishoralarni tizimli ravishda o‘rganishga ilk bor qadimgi Rim notiqalaridan biri — Mark Fabiy Kvintilian asos solgan. U o‘zining mashhur “Institutio Oratoria” nomli asarida qo‘l harakatlari va boshqa noverbal ifoda vositalarining notqlikdagi o‘rnini keng yoritgan hamda bu jihatdan dastlabki tasnif va tavsiflarni taqdim etgan [Quintilian, 95CE].



O'rta asr Yevropada noverbal muloqot, ayniqsa, tana harakatlari orqali ifodalanadigan imo-ishoralarning ijtimoiy va madaniy funksiyalari tarixchilar tomonidan alohida e'tiborga loyiq deb topilgan [Khasanova,2023]. Tadqiqotchilar fikricha, inson o'z his-tuyg'ulari va fikrlarini ba'zan og'zaki ifodaga nisbatan yanada aniqlik bilan aynan imo-ishoralar orqali yetkazadi. Fransuz tarixchisi Jak Le Goff bu davrni o'z asarlarida “Une civilisation du geste” — ya'ni “Imo-ishoralar sivilizatsiyasi” deb ta'riflagan va rasmiy marosimlar, qasamyodlar, ta'zim kabi ijtimoiy hodisalar doirasida imo-ishoralarning ijtimoiy maqomi va kommunikativ vazifasini chuqur tahlil qilgan [Burrow, 2002:11].

Noverbal muloqotga ilmiy yondashuv XIX asrda Charles Darvinning fundamental ishlari bilan boshlangan. U o'zining mashhur “The Expression of the Emotions in Man and Animals” (1872) asarida inson va hayvonlarning hissiy holatlarni ifodalashdagi harakatlarini kuzatgan holda, bunday ekspressiv vositalarning biologik ildizlari va evolyutsion asoslarini tahlil qilgan. Darvinning fikricha, hissiyotlarni ifodalovchi jismoniy belgilar — masalan, yuz ifodasi, tana holati va ovoz o'zgarishlari — insoniyatning qadimiy evolyutsion tajribalaridan kelib chiqqan bo'lib, ular universal xususiyatga ega. Bu yondashuv noverbal kommunikatsiyani nafaqat madaniy yoki sotsiologik fenomen sifatida, balki biologik asoslangan jarayon sifatida o'rganishga asos yaratdi [Darwin,1972].

XX asrning birinchi yarmidan e'tiboran, noverbal muloqot masalalari yanada chuqurroq o'rganila boshladi. Ayniqsa, tana harakatlarining muloqotdagi ahamiyatini tahlil qiluvchi kinesika ilmiy yo'nalishi shakllanib, bu borada amerikalik olim Ray L.Birdwhistell katta hissa qo'shdi [Birdwhistell, 1872]. Uning tadqiqotlarida tana harakatlari tili — xususan, imo-ishora, holat, yuz ifodasi kabi elementlar — til singari murakkab va kontekstga bog'liq kommunikatsion tizim sifatida talqin qilinadi. Birdwhistellning fikricha, “noverbal harakatlar insonlararo muloqotda asosiy ma'lumot manbalaridan biridir va ularni tushunish uchun ularni tildan mustaqil, lekin unga integratsiyalashgan tizim sifatida ko'rib chiqish lozim”. Shu bilan birga, insonlar orasidagi fazoviy munosabatlarni o'rganishga bag'ishlangan proksemika yo'nalishi ham noverbal muloqotni tahlil qilishda muhim o'rin tutadi. Ushbu konsepsiyaning asoschisi Edward T.Hall bo'lib, olim “Yashirin o'lcham” (“The Hidden Dimension”)(1966)) nomli asarida turli madaniy muhitlarda odamlar orasidagi masofa va fazoviy aloqa normalarining farqlanishini ilmiy jihatdan asoslab bergan. Hall proksemikani inson psixologiyasi va madaniy kontekst bilan bog'liq kompleks tizim sifatida ko'radi. U masofani to'rt asosiy zona — intim, shaxsiy, ijtimoiy va jamoaviy — sifatida ajratadi va ularning har biri kommunikatsion kontekstga qarab farqlanishini ko'rsatib o'tadi [Hall,1966].

Shuningdek, jahon tilshunosligida noverbal vositalarning kommunikativ funksiyalari A.Piz, D.Morris, M.Argyle, M.Knapp, R.Rosenthal, A.Mehrabian, R.Axtell, M.Hickson kabi tadqiqotchilar tomonidan har tomonlama yoritilgan [Xasanova, 2023: 9-10].

Noverbal kommunikatsiyaning muhim tarkibiy qismlaridan biri bo‘lgan yuz ifodalari — mimika va uning emotsional semantikasi — P.Ekman hamda I.Eibl-Eibesfeldt tomonidan puxta o‘rganilgan. Ko‘z qarashi va uning pragmatik funksiyalari yuzasidan S.Kleinke, B.Argyle, T.Farroni tadqiqotlari muhim ilmiy manba bo‘lib xizmat qiladi. Imo-ishoralar, ya’ni jestikulyatsiya tizimi A.Kendon tomonidan lingvistik va sotsiokultural nuqtai nazardan o‘rganilgan [Xasanova, 2023: 4].

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab, noverbal kommunikatsiya sohasida ko‘plab yangi ilmiy izlanishlar amalga oshirildi [Duncan, 1969:118]. Ushbu davrda madaniy determinantlarning muloqotga bo‘lgan ta’siri tobora dolzarb masalaga aylandi. Xususan, antropolog David E.Leach tomonidan olib borilgan tadqiqotlar madaniyatlararo tafovutlarning noverbal belgilarni talqin qilishdagi rolini yoritib berdi [Leach,1972]. Leachning ishlarida ramziy belgilar, ularning kontekstual yuki va madaniy ma’nalari alohida tahlil qilinadi. U noverbal muloqotda universal va nisbiy elementlarning qanday uyg‘unlashishini aniqlashga uringan [Khasanova, 2023].

Jumladan, V.Vundt insoniyat taraqqiyoti tarixida dastlab ikki xil til shakllanganini ta’kidlaydi: ulardan biri — **tovush tili**, ikkinchisi esa — **imo-ishora tili**. Olimning fikricha, insonlar tovush tili orqali imo-ishoralar bilan ifodalab bo‘lmaydigan his-tuyg‘ularni ifodalaganlar, imo-ishora vositalari yordamida esa atrof-muhitdagi narsalar, predmetlar va voqea-hodisalarni tasvirlaganlar. Shuningdek, Vundt imo-ishora va mimika orqali ruxsat berish, taqiqlash, ko‘rsatish, iltimos qilish, xavf-xatarni anglatish va shodlik kabi ma’nalarni ifodalash imkoniyati mavjudligini ham alohida qayd etadi [Turniyazov, 2002: 10-11]. Bizningcha, Vundtning ushbu qarashlari noverbal vositalarning insoniyat tafakkuri va muloqotidagi o‘rnini chuqur anglash imkonini beradi. Zero, tovush tili va imo-ishora tilining dastlabki bosqichlarda yonma-yon mavjud bo‘lishi ularning kommunikativ ehtiyojlarni qondirishdagi o‘ziga xos funksiyalarini ko‘rsatadi. Tovush tili abstrakt tushunchalarni ifodalash imkonini bergan bo‘lsa, imo-ishoralar real predmet va hodisalarning bevosita tasvirini yaratgan. Shu bois bu ikki tizim o‘zaro to‘ldiruvchi vosita sifatida amal qilgan. Keyinchalik inson tafakkuri rivojlangani sari tovush tili yetakchi mavqega ega bo‘ldi, biroq imo-ishora va mimika kabi noverbal belgilar o‘z ahamiyatini yo‘qotmadi. Aksincha, ular hissiy-psixologik aloqani mustahkamlash,



nutq mazmunini boyitish va muloqot samaradorligini oshirishda hal qiluvchi omil sifatida hozirgi kungacha saqlanib qoldi.

Shuningdek, F. Delsarte tana harakati va inson xarakteri o'rtasidagi organik bog'liqlikka alohida e'tibor qaratgan. U o'zining “Harmonic, Gymnastic and Pantomimic Expression” (1895) nomli asarida quyidagi fikrni ilgari suradi: “Ma'nosiz va sababsiz bo'lgan imo-ishoradan ko'ra hech narsa ayancli emas. Imo-ishora nutqdan ko'proqdir. Bu — biz ishonadigan narsa emas, balki uni aytish usuli. Og'zaki nutq imo-ishoradan ko'ra past turadi, chunki u ong hodisalariga mos keladi. Imo-ishora esa yurakning agenti, ishontiruvchi vositadir” [Stephen, 2002: 3]. Mazkur mulohazalar noverbal vositalarning, xususan tana harakatining, insonning ichki kechinmalarini bevosita aks ettiruvchi kuchli kommunikativ omil sifatidagi ahamiyatini ochib beradi. Bu vositalar muloqot jarayonida ko'pincha og'zaki nutqdan ko'ra kuchliroq psixologik va emotsional ta'sir ko'rsatadi [Khasanova, 2025: 171-175]. Ayniqsa, shaxslararo muloqotda ishonch uyg'otish, hissiy bog'lanish o'rnatish hamda axborotni samarali yetkazishda imo-ishora va tana tili hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Shuningdek, verbal va noverbal birliklar o'rtasidagi munosabatlar hamda ularning o'zaro ta'siri bilan bog'liq masalalar rus tilshunosligi va psixologiya fanlarida ham keng ko'lamda o'rganilgan. Bu borada ko'plab nufuzli tadqiqotchilar tomonidan muhim ilmiy izlanishlar olib borilgan. Jumladan, E.S.Andreeva, V.I.Belikov, G.E.Blinushova, V.V.Bogdanov, E.M.Vereshchagin, V.G.Kostomarov, I.N.Gorelov, V.G.Kolshanskiy, E.V.Krasil'nikova, V.A.Labunskaya, X.Mikkin, T.M.Nikolaeva, A.S.Polivanov, N.I.Smirnova, V.M.Shaklein va boshqa olimlar tomonidan ushbu yo'nalishda asosli ilmiy tadqiqotlar olib borilgan [Xasanova, 2023].

Ushbu izlanishlarda, xususan, insonlararo muloqotda verbal (og'zaki) va noverbal (og'zaki bo'lmagan) belgilar tizimi qanday uyg'unlashuvi, ularning kommunikativ, pragmatik va psixologik funksiyalari, shuningdek, madaniy va ijtimoiy kontekstdagi roli chuqur tahlil qilingan. E'tiborli jihati shundaki, bu olimlarning ishlanmalarida noverbal vositalarning faqat lingvistik emas, balki psixologik jarayonlar, ijtimoiy ong va kommunikativ kompetensiya bilan bevosita bog'liqligi nazariy hamda amaliy asosda isbotlangan [Abjalova M, 2021].

Ayniqsa, E.S.Andreeva va V.A.Labunskaya tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shaxslararo muloqotdagi mimika, imo-ishora, ko'z qarashi, tana harakatlari kabi noverbal belgilarni empirik kuzatish orqali tahlil qilish metodologiyasini ishlab chiqqanligi bilan ajralib turadi [Андреева, 2001: 121]. V.G. Kostomarov va E.M. Vereshchagin esa noverbal belgilar va milliy-madaniy komponentlar o'rtasidagi uzviy aloqani ochib bergan [Верещагин, 1981: 36].



O'zbek tilshunosligida bu borada dastlabki izlanishlar A.Nurmonov tomonidan olib borilgan. Olim paralingvistik belgilar va ularning til strukturasi o'rnini nazariy jihatdan tahlil qilgan, ayniqsa inkor ma'noli vositalarning kommunikativ ahamiyatini yoritgan. M.Saidxonov esa o'zbek tili matnlari asosida noverbal belgilarni hissiy-estetik ifoda vositasi sifatida ko'rsatgan. X.Ismoilov sud lingvistikasi doirasida yuz ifodalari va tana harakatlarining psixologik ahamiyatini sud jarayonlarida tahlil qilgan. Z.Karimova o'zbek va ingliz tillaridagi noverbal vositalarning sotsiopragmatik jihatlarini qiyoslab o'rgangan bo'lsa, I.Ahmedov ularni shaxslararo muloqotdagi rolini ochib bergan [Khasanova, 2023].

Badiiy matnlardagi noverbal ifodaning tadqiqi bilan M.Burxonova shug'ullangan bo'lib, u olfaktor vositalarning paralingvopoetik imkoniyatlarini tahlil qilgan. G.Xasanova esa dialogik nutqdagi mimika, intonatsiya, imo-ishoralar va tana harakatlarining semantik va pragmatik yuklamalarini tadqiq etgan. Ushbu nazariy qarashlar bugungi virtual muloqot muhitida yuzaga kelayotgan emoji, gif, stiker kabi yangi noverbal birliklarni o'rganish uchun ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi [Xasanova, 2023].

Mazkur olimlarning ilmiy ishlari nafaqat tilshunoslik, balki psixologiya, sotsiologiya, madaniyatshunoslik kabi fanlar kesishmasida ham dolzarb bo'lib, noverbal kommunikatsiyaning ko'p qirrali tabiati va ularning pragmatik imkoniyatlarini ochib berishda muhim manba sifatida xizmat qiladi.

Xulosa. Noverbal vositalar zamonaviy lingvistika va kommunikatsiya tadqiqotlarida insonlararo muloqotning muhim tarkibiy qismi sifatida qaraladi. Ular verbal nutqni to'ldiruvchi, uning mazmunini kuchaytiruvchi hamda yangi semantik qirralar bilan boyituvchi vositalardir. Imo-ishora, mimika, pauza, tana harakati, intonatsiya, ovoz balandligi va ritmi kabi belgilar muloqotda faqat yordamchi emas, balki mustaqil semantik va pragmatik ahamiyat kasb etuvchi omillardir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, inson o'z hissiy holatini, munosabatini va psixologik kechinmalarini ko'pincha noverbal belgilar orqali yanada aniq va ta'sirchan ifodalaydi. Qadimiy notiqlar merosidan tortib zamonaviy lingvistlar, psixologlar va antropologlarning izlanishlari noverbal muloqotning universal va milliy-madaniy qirralarini ochib bergan. Bu vositalar kommunikatsiyada ishonchni shakllantirish, shaxslararo aloqani mustahkamlash hamda axborotni samarali yetkazishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shu bois noverbal vositalarning lingvistik, sotsiokultural va psixologik jihatlarini tizimli tahlil qilish, ularning turli kontekstlardagi funksiyalarini o'rganish ilmiy nuqtayi nazardan dolzarbdir. Ular tilshunoslikda nafaqat qo'shimcha omil, balki muloqot jarayonining markaziy unsurlaridan biri sifatida e'tirof etiladi.

Adabiyotlar:

1. Aslonov, I.N. Ijtimoiy faoliyat va muomala psixologiyasi. Metodik qo‘llanma. Toshkent, 2019. – B.50.
2. Birdwhistell, R.L. Kinesics and Context: Essays on Body Motion Communication. Philadelphia: University of Pennsylvania Press, 1970.
3. Burrow, J. Gestures. In Gestures and Looks in Medieval Narrative (Cambridge Studies in Medieval Literature, p.11). Cambridge: Cambridge University Press, 2002.
4. Darwin, Ch. On the Expressions of the Emotions in Man and Animal. London, 1872.
5. David, Leach. Interior. 1972.
6. DeVoe, S., Wiener, M., Rubonow, S., & Geller, J. Nonverbal behavior and nonverbal communication. Psychological Review, 79(3), 185–214, 1972.
7. Duncan, S. Jr. Nonverbal communication. Psychological Bulletin, 72, 118–137. University of Chicago, 1969.
8. Hall, E. T. The Hidden Dimension. Garden City, NY: Doubleday, 1966.
9. Khasanova, G. Dialogue and nonverbal means. International Conference on Multidisciplinary Science, Volume 1, Issue 5. India, 02.11.2023. – P.16–18. <https://mjstjournal.com/index.php/icms/article>
10. Khasanova, G., & Mardonova, D. Barriers to the development of students' speaking competence. International Conference on Interdisciplinary Science, Volume 02, Issue 04, 2025. universalconference.us. Pp.171–175.
11. Quintilian, M. F. Institutio Oratoria. ca. 95 CE.
12. Stephen, Joly. Understanding Body Language: Birdwhistell's Theory of Kinesics. Article, September 2000. – P.3.
13. Turniyazov, N. Q. Tilshunoslikka kirish. Samarqand, 2002. – B.10–11.
14. Xasanova, G. Dialogik nutqda noverbal vositalarning pragmatik xususiyatlari. Monografiya. Samarqand: Samarqand davlat chet tillar instituti nashriyoti, 2023. – 136 b.
15. Андреева, Е. С. Диалектика текста. Опыт логиколингвистического синтеза. Москва: УРСС, 2001. – 121 с.
16. Лабунская, В. А. Невербальное поведение. Ростов-на-Дону, 1986.
17. Верещагин, Е. М., & Костомаров, В. Г. О своеобразии отражения мимики и жестов вербальными средствами (на материале русского языка). В.Я., №1, 1981. – С.36.
18. Abjalova M. O'zbek tilidagi matnlarni tahrir qilishda uslub masalasi // Ta'lim tizimida ijtimoiy-gumanitar fanlar, – Toshkent, 2013. – №2. – B. 140-145. ISSN 2181-7286. 1.01.2011 (10.00.00 №16).



19. Abjalova M. (2021). The importance of language corpus in the construction of lexicographic sources. *Current Research Journal Of Philological Sciences* (2767-3758), 2(12), 161–166. <https://doi.org/10.37547/philological-crjps-02-12-31>.
<https://masterjournals.com/index.php/crjps>.
20. Abjalova M., Uzakova M. Software and Linguistic Features of Uzbek Synonymizer. // *IEEE – UBMK – 2022: 7th International Conference on Computer Science and Engineering*. 24-26 September 2022. – Diyarbakir, Turkey. – pp. 177-181. Impakt Factor 5.5. DOI: 10.1109/UBMK55850.2022.9919447
21. Khasanova G. The Importance of Deictic Means In The Transmission Of Pragmatic Information. *International Science Osaka 2021. International multidisciplinary scientific conference*. - Osaka, Japan, May-June, 2021. - P. 32-33
22. Khasanova G. The role of context in nonverbal means. Formation and development of pedagogical development. *International Scientific Practical Conference – Belgium, 02.11.2023.* – P.6-9.
<https://www.openconference.us/index.php/pedagogy>.